XALQ DEPUTATLARI GULISTON TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Guliston tumani 120300, Turkiston ko‘chasi, 13-uy. Tel: (67) 796-24-57

2022 - yil 1 - iyul VI-52-99-9-124-K/22 Guliston tumani hokimligi

Guliston tumani Yulduz, Ishonch, Zarbdor, Sharq haqiqati, Oqoltin, Sohilobod mahalla fuqarolar yig‘inlarida ayrim nomlanmagan, nomlari takrorlangan ko‘chalar va tumandagi qabristonlarga yangi nomlar berish to‘g‘risida

Kun tartibidagi masala deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilinib Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekpertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 18-fevraldagi 01-14-180-sonli yig‘ilish bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan nomlanmagan yoki nomlari takrorlangan ayrim ko‘chalar hamda qabristonlarni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 18-fevraldagi 01-14-180-sonli yig‘ilish bayoni qarori bilan taklif etilgan ko‘chalar va qabristonlar nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Ibragimov), tuman Adliya bo‘limi (Sh.Iskanov), tuman Statistika bo‘limi (B.Suyarov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Umurov), Davlat xizmatlari markazi (Sh.Tursunqulov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Xushmuratov), Davlat kadastrlar palatasi Guliston tumani filiali (J.Abdullayev), tuman Qurilish bo‘limi (X.Yuldashev) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

-mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari O.Jo‘rayev, tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Xushmuratov)larga:

- 10 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida homiy tashkilotlar yordamida) peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalar o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish va nazoratga olish vazifalari yuklansin.

5. Tuman hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiya (O.Jo‘rayev), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Xushmuratov) va fuqarolar yig‘inlari raislari bilan hamkorlikda:

-bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalar va qabristonlarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Ibragimov)ga:

-tuman hududlaridagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi pasport berish va ularni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi X.Chelibayevga;

-hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlar bersin.

8. “Guliston hayoti” gazetasi tahririyati (B.Norjigitova)ga ushbu qarorni “Guliston hayoti” gazetasida yoritish tavsiya etilsin.

9. Tuman hokimi o‘rinbosari O.Jo‘rayevga mazkur qaror bilan bog‘liq xujjatlar geografik ob’yektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etish belgilansin.

10**.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy-madaniy rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Usmanov va tuman hokimining o‘rinbosari O.Jo‘rayev zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **R.Sheranov**

Xalq deputatlari Guliston tuman Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-52-99-9-124-K/22-son qaroriga
1-ilova

Guliston tumanida Geografik obyektlarni inventarizasiyadan o‘tkazilgan hamda tasdiqlangan qayta nomlangan Geografik obyektlar

RO‘YXATI

№	Ko‘chalar joylashgan QFY va MFY nomi	Ko‘chalarning nomlanishi	Viloyat komissiyasiga taklif etilgan nomlar	Viloyat komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nomlar
1	Yulduz mahalla fuqarolar yig‘ini	2-ko‘cha	Shijoat, Ildam va Sokinlik	Sokinlik
2		3-ko‘cha	Murabbiy, Faxriylar va Ziynat	Faxriylar
3		4-ko‘cha	Vodiy, Voha va Chaman	Vodiy
4		7-ko‘cha	Do‘stlik, Zomin va Baxmal	Zomin
5		9-ko‘cha	Orom, Sokin va Sihat	Shodlik
6	Ishonch mahalla fuqarolar yig‘ini	1-ko‘cha	Yangi davr, Tafakkur va Sahar	Yangi davr
7		4-ko‘cha	Obod diyor, Ma’naviyat va Oltin	Obod diyor
8		5-ko‘cha	Darxon, Shifokorlar va Ittifoq	Darxon
9	Boyovut mahalla fuqarolar yig‘ini	Sanam	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-apreldagi PQ-4298-sonli qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida Boyovut mahallasida joylashgan Sanam ko‘chasini nomini Boyovut mahallasida tug‘ilgan, ulug‘ vatan urushi qatnashchisi Mingboyev Mirzali nomiga almashtirish	Mirzali
10	Yulduz mahallasi Oq terak ko‘chasi bo‘yicha	1-ko‘cha	Samarqand, Buxoro va Farg‘ona	Samarqand
11		4-ko‘cha	Nishona, Namuna va Yashin	Yashin
12	Yulduz mahallasi Bodomzor ko‘chasi bo‘yicha	3-ko‘cha	Nurli yo‘l, Nurli diyor va Nurli bog’	Nurli diyor
13	Zarbdor MFYda yangi tashkil etilayotgan ko‘chalarga nomlar	1-ko‘cha	Munavvar, Uzumzor va Birdamlik	Munavvar
14		2-ko‘cha	Farovon xayot, Dilxush va Uchqun	Uchqun
15		5-ko‘cha	Minor, Terakzor va Ko‘k terak	Minor
16	Sharq haqiqati MFY Vatan bo‘limi hududidagi	2-ko‘cha	Nafosat, Yulduz va Madad	Nafosat
17	Oqoltin MFY bo‘yicha	1-ko‘cha	Yangi bo‘ston, Nasm va Samo	Yangi bo‘ston
18		2-ko‘cha	Shams, Asalchi va Baxor	Shams
19	Sohilobod QFY bo‘yicha	Mahalla markazidagi asosiy ko‘chaga	“Yettiurug’”, “Sohil”, “Chaman”	Yettiurug‘

20	Ibrat MFY	Qabriston	Dehqonobod shaharchasi musulmonlar	Dehqonobod musulmonlar qabristoni
21	Boyovut MFY	Qabriston	Boyovut qabristoni	Boyovut qabristoni
22	Oltinvodiy MFY	Qabriston	Ko‘nchi musulmonlar qabristoni	Ko‘nchi musulmonlar qabristoni
23	Furqat MFY	Qabriston	Ko‘nchi nasroniylar qabristoni	Ko‘nchi nasroniylar qabristoni
24	Sohilobod QFY	Qabriston	Yettiurug‘ musulmonlar qabristoni	Yettiurug‘qabristoni
25	Beshbuloq QFY	Qabriston	Beshbuloq mahallasi qabristoni	Beshbuloq qabristoni
26	Chortoq QFY	Qabriston	Chortoq mahallasi qabristoni	Chortoq qabristoni
27	Birlashgan MFY	Qabriston	Birlashgan mahallasi qabristoni	Birlashgan qabristoni
28	Mustaqillik MFY	Qabriston	Firdavs qabristoni	Firdavs qabristoni
29	Chortoq QFY	Qabriston	Islomobod musulmonlar qabristoni	Islomobod qabristoni
30	Zarbdor MFY	Qabriston	Zarbdor mahallasi	Zarbdor qabristoni
31	Ishonch MFY	Qabriston	Ishonch mahallasi qabristoni	Ishonch qabristoni
32	Baxmal MFY	Qabriston	Raxmonobod musulmonlar qabristoni	Rahmonobod qabristoni
33	Baxmal MFY	Qabriston	Baxmal mahallasi qabristoni	Baxmal qabristoni
34	Oqoltin MFY	Qabriston	Zarif ota musulmonlar qabristoni	Zarif ota qabristoni
35	Oqoltin MFY	Qabriston	Oqoltin mahallasi nasroniylar qabristoni	Oqoltin qabristoni
36	Sohil MFY	Qabriston	Changirbobo musulmonlar qabristoni	Changirbobo qabristoni
37	Chortoq QFY	Qabriston	Chortoq nasroniylar qabristoni	Chortoq nasroniylar qabristoni